

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”

Rektor G.Sh. Rixsiyeva

2025yil

30 - 06



MAXSUS FANLARNI O‘QITISH METODIKASI
FANINIG O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi: 400000 Biznes, boshqaruv va huquq

Ta‘lim sohasi: 410000 Biznes va boshqaruv

Mutaxassislik: 70410108 Mintaqaviy iqtisodiyot
70411102 Tashqi iqtisodiy faoliyat

Bilim sohasi: 1 000 000 Xizmatlar

Ta‘lim sohasi: 1010 000 Xizmat ko‘rsatish sohasi

Mutaxassislik: 71010101 Turizm va mehmondo‘stlik

“Tashqi siyosat va xalqaro iqtisodiy munosabatlar” inslituti direktori




G.T.Arifjanov

“Iqtisodiyot va menejment” kafedrası mudiri



Z.A.Kadrova

ARM boshlig'i



M.M.Yuldasheva.

| | | | | | |
|----------------------------|---|---------------------------|--|------------------------------|---------------------------|
| Fan/modul kodi MFO'1304 | | O'quv yili 2026-2027 | Semestr 3 | ECTS - Kreditlar 4 | |
| Fan/modul turi Majburiy | | Ta'lim tili O'zbek/rus | | Haftadagi dars soatlari 4 | |
| 1. | Fanning nomi | | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi | | 48 | 72 | 120 |
| 2. | <p>I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi, uning o'ziga xos xususiyatlari, mutaxassislik fanlarini o'qitishda yangi axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanish, mutaxassislik fanlaridan darslik va o'quv qo'llanmalari tayyorlash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifalari – nazariy materiallarga tayangan holda amaliy va ilmiy faoliyatni mustaqil tashkil etish, mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasini o'zlashtirish, mutaxassislik fanlarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda seminar mashg'ulotlari va mustaqil ta'lim shakllarini tanlash, tegishli taklif va xulosalar ishlab chiqishni o'rgatishdan iborat.</p> <p>Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi top 300 talik ro'yxatga kiruvchi Manchester universiteti (University of Manchester) (THE = 51-o'rin) xorijiy tajribasini inobatga olgan holda takomillashtirildi.</p> <p>https://www.timeshighereducation.com/world-university-rankings/university-manchester;</p> <p>https://www.manchester.ac.uk/study/undergraduate/courses/2025/12384/bsc-education/course-details/#course-profile</p> <p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg</p> <p>II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu. Didaktika va iqtisodiy fanlarni o'qitish metodikasi</p> <p>Didaktikaning mohiyati va asosiy tushunchalari. Didaktika qonunlari va tamoyillari. Ta'lim jarayonining psixologik va pedagogik asoslari. Metodika – ta'lim va tarbiya usullari. Ta'lim berish metodikasi predmeti – ma'lum o'quv fanini o'rganish jarayoni. O'qitish qonuniyatlarini o'rganish va uning asosida o'qituvchi faoliyatiga tegishli bo'lgan normativ talablarni ishlab chiqish metodika vazifasi sifatida.</p> <p>2-mavzu. Ta'lim nazariyasi. Zamonaviy ta'lim usullari</p> <p>Ta'lim nazariyasi shakllanishining obyektiv-tarixiy zarurati. Ta'lim berish paradigmasi. Ta'lim paradigmasi. Ta'lim paradigmalarni taqqoslash: maqsadi, muvaffaqiyat me'zonlari, tashkiliy jihatlari, ta'lim samaradorligi. Ta'lim berish usullarining mohiyati va tasnifi. To'g'ridan-to'g'ri ta'lim berish. Tadqiq etish.</p> | | | | |

Modellashtirish. Hamkorlikdagi ta'lim. Akademik, faol va interfaol ta'lim berish. "25 dan 5" interfaol usuli. Ta'lim usullarining iqtisodiy rivojlanishdagi bilimlar roli bilan o'zaro aloqadorligi.

3-mavzu. To'g'ridan-to'g'ri ta'lim

Ma'ruzaning mohiyati, vazifalari va turlari. Ma'ruza tarkibi. Ma'ruza tayyorlash va uni konspektlashtirish. Ma'ruza orqali to'liq muloqot qilish shartlari. Ma'ruzachining mahorat jihatlari. Ma'ruza o'qish turlari. Og'zaki esse. Og'zaki esse – dialog. Talabalar ishtirokidagi ma'ruza. Disput ma'ruzalar. Faol ma'ruzalarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar. Mikrolektsiyalar va ularning mezonlari.

4-mavzu. O'quv jarayonida tadqiqot va modellashtirish

Tadqiqotning foyda va xarajatlari. Muammoli vaziyatlarni yaratish usullari. Iqtisodiyotda tadqiqot vazifalaridan foydalanish. Modellashtirish usullarining xususiyatlari. Modellarini haqiqiy dunyo bilan taqqoslash, kurs mazmuni bilan bog'lanish. Modellashtirishning afzalliklari va kamchiliklari.

5-mavzu. Maxsus fanlar bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini loyihalashtirish va rejalashtirish

Ta'limga texnologik yondashuvning mohiyati va uning uzluksuz rivojlanishi. Ta'limni texnologiyalashtirish sohasidagi asosiy toifa va tushunchalar. O'quv mashg'ulotida o'qitish texnologiyasi modelining mazmuni va uning tuzilishi. O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi mazmuni va uning tuzilishi.

6-mavzu. Oliy maktabda hamkorlikdagi ta'lim

Nazariy asoslar. Hamkorlikdagi ta'lim unsurlari. Kichik guruhlarda ishlashning foydali va tanqidiy jihatlari. Mashg'ulotning mazkur turini o'tkazishda o'qituvchining roli. Kichik guruhlarda ishlashning shart-sharoitlari. "Nominal guruhlar texnikasi", "Metoplan", "Mozaika".

7-mavzu. Seminar mashg'uloti va uning mohiyati. Faol ta'lim modeli

Seminar – ta'lim jarayoni shakli sifatida. Ma'ruza va seminar darajasi. Seminar vazifalari. Amaliy mashg'ulotni tayyorlash va o'tkazish jarayonida o'qituvchining o'rni. Seminar shakllari. Seminar sifatini baholash mezonlari. Mashg'ulotlar davomida faol va interfaol o'rganish modeli. Auditoriyada o'zaro hamkorlikning davomiyligi. Individual o'qitish uslublari. Kurs maqsadlarining davomiyligi. Talabalarning tajriba darajasini davom ettirish. Faol texnika vositalaridan foydalanish. Maxsus kursni rivojlantirishda ushbu modeldan foydalanish.

8-mavzu. Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish metodikasi

Talabalar mustaqil ishlarini boshqarishda o'qituvchining roli. Talabalar mustaqil ishlarini boshqarishda o'qituvchining roli. Talabalar mustaqil ishlarini boshqarishda o'qituvchining roli. Talabalar mustaqil ishlarini boshqarishda o'qituvchining roli. Talabalar mustaqil ishlarini boshqarishda o'qituvchining roli. Seminarlar, testlar, imtihonlarga tayyorgarlik. Kurs ishi va yakuniy malaka ishlarini tayyorlash. Ishlab chiqarish amaliyoti. Pedagogik amaliyot. Ma'ruza va seminar

materiallarini metodik rivojlantirish. Fikr va uning samaradorligi tamoyillari.

9-mavzu. Maxsus fanlarni o'qitishda qo'llaniladigan innovatsion texnologiyalar

O'quv loyiha va uning mazmuni. O'quv mashg'uloti jarayonining loyihasi ishlab chiqish bosqichlari. Loyihaviy ta'limning asoslari. Loyihaviy ta'limning didaktik belgilari. O'quv loyihaviy faoliyat. O'quv loyihalarining turlari. O'quv loyihasing uslubiy pasporti.

10-mavzu. Maxsus fanlarni o'qitish natijalari nazorati

Talabalarning o'quv yutuqlari nazoratining ahamiyati va uning vazifalari. O'qitish natijalari nazoratida testning o'rni. Test nazoratining afzalliklari. Bilim ko'nikma va malakalarni muvaffaqiyatli o'zlashtirish testlarini ishlab chiqish yo'llari. Testlarning turlari.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Didaktika va iqtisodiy fanlarni o'qitish metodikasi
2. O'qitish nazariyasi. O'qitishning zamonaviy metodlari
3. To'g'ridan-to'g'ri ta'lim
4. O'quv jarayonida tadqiqot va modellashtirish
5. Maxsus fanlar bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini loyihalashtirish va rejalashtirish
6. Oliy maktabda hamkorlikdagi ta'lim
7. Seminar mashg'uloti va uning mohiyati. Faol ta'lim modeli
8. Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish metodikasi
9. Maxsus fanlarni o'qitishda qo'llaniladigan innovatsion texnologiyalar
10. Maxsus fanlarni o'qitish natijalari nazorati

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Oliy ta'limda pedagogika va iqtisodiy fanlarni o'rganishda o'quv jarayonini xususiyatlari. O'qituvchining vazifalari.
2. Universitet o'qituvchisi: faoliyatining xususiyatlari va komponentlari.
3. Psixologiya va ta'lim nazariyasi (e'tibor, idrok va talabaning iqtisodiy fikrlashini shakllantirish).
4. Iqtisodiy fanlarni o'qitish usullarida pedagogika, psixologiya va

| | |
|----|--|
| | <p>matematika.</p> <ol style="list-style-type: none"> 5. Ta'lim jarayoni sifatida keyslar. 6. Ma'ruzaning metodik va tashkiliy asoslari. Ma'ruza va darslik o'rtasidagi farq. 7. Muammolarni shakllantirish va ma'ruza matnini taqdim etish. 8. Talabalarning mustaqil ishlarini faollashtirish jarayonida elektron darsliklar yordamidagi uslubiyot. 9. Ma'ruza o'qish orqali og'zaki nutqdan foydalanish va rivojlanish tarixi masalalari. 10. Aniq vaziyatlar usuli yordamida ta'lim berish. 11. Munozara seminarini o'tkazish shakli sifatida. 12. Ta'limning faol shakllarini (iqtisodiy insholarni amalga oshirish, "aqliy hujum", tanlovlar - seminarlar va boshqalar) tashkil etish usullari. <p>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</p> |
| 3. | <p>V Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Fanni o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida magistrant:</p> <ul style="list-style-type: none"> - iqtisodiy fanlar bo'yicha o'qitish jarayonining umumiy tavsifi, uning eng muhim xususiyatlari va tarkibi, iqtisodiy fanlar bo'yicha zamonaviy nazariya, oliy maktabda iqtisod fanlarini o'qitishning zamonaviy tendensiyalari, iqtisodiy fanlar bo'yicha maxsus kurslarni o'qitishning asosiy tamoyillari va xususiyatlarini <i>bilish va foydalana olishi kerak</i>; - oliy ta'limni zamonaviylashtirish, axborot maydoniga yo'naltirish va zarur axborot manbalarini topish, oliy ta'limning natijalari va mazmunini normalashtirishga oid asosiy hujjatlardan (malaka doirasi, ta'lim standartlari, o'quv dasturlari) ma'lumot olish, tahlil qilish va ulardan foydalanish, oliy kasbiy ta'lim dasturlarining mazmunini loyihalashtirish, nazorat qilish va baholash usullari bilan birgalikda iqtisodiy fanlarni o'qitish usullari va texnologiyalarini tanlash, Oliy ta'lim muassasi o'qituvchisining o'z metodik tizimini ishlab chiqish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak</i>. |
| 4. | <p>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. |
| 5. | <p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va</p> |

| | |
|----|---|
| | topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha efiye topshirish. |
| 6. | <p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar</p> <p>1. Heather Fry, Steve Ketteridge, Stephanie Marshall. A handbook for teaching and learning in higher education: enhancing academic practice. University of London. 2019</p> <p>2. Ҳақимова М.Ф., Лутфуллаева Н.Х., Абдуллаева Р.М., Файзуллаева Д.М. Махсус фанларни ўқитиш методикаси. Ўқув қўлланма. – Т.: IQTISODIYOT, 2019. – 142 б.</p> <p>3. Тюнин, А.И. Методика преподавания экономики (настольные экономические игры): учебное пособие / Тюнин А.И. - Челябинск: Изд-во ЗАО «Библиотека А. Миллера», 2018. – 160 с.</p> <p>4. Камалова К.Ф., Замилова Р.Р., Козлова Л.С. Методика преподавания специальных дисциплин: учебник / К.Ф.Камалова, Р.Р.Замилова, Л.С.Козлова. - Наманган: Издательство «Usmon Nosir media», 2023 г. - 232 с.</p> <p style="text-align: center;">Qo'shimcha adabiyotlar</p> <p>1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. – Т.: "O'zbekiston", 2022.</p> <p>2. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda: O'quv qo'llanma./ Sh. Mirziyoyev. – 2021.</p> <p>3. Mirziyoyev Sh. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. 4-jild: O'quv qo'llanma./ Sh.Mirziyoyev. – 2020.</p> <p style="text-align: center;">Axborot manbalari</p> <p>5. www.stat.uz</p> <p>6. www.worldbank.org</p> <p>7. www.wto.org</p> <p>8. www.unesco.org</p> <p>9. www.imf.org</p> <p>10. www.unctad.org</p> |
| 7. | <p>O'quv dasturi "Sharq mamlakatlari iqtisodiyoti" kafedrasida ishlab chiqilgan va 20 <u>25</u>-yil "<u>24</u>" <u>06</u> dagi "<u>№</u>"-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.</p> <p>O'quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 20 <u>25</u>-yil "<u>28</u>" <u>06</u> dagi "<u>№</u>"-sonli bayoni bilan tasdiqlangan.</p> |
| 8. | <p style="text-align: center;">Fan/modul uchun mas'ul:</p> <p>Xakberdiev K.K. – TDSHU "Iqtisodiyoti va menejment" kafedrasida dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi</p> |
| 9. | <p style="text-align: center;">Taqrizchilar:</p> <p>Sadibekova B.Dj. – TDSHU "Iqtisodiyoti va menejment" kafedrasida dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi.</p> <p>Tuxliyev N.T. – O'zXIA "Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi" kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (turdosh OTM).</p> |